



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

## “ONLINE SHOPPING (ELEKTRON TIJORAT)” TIZIMIDA SOLIQ

N.B.Karimova,

Chilonzor tumani davlat Xizmatlari markazi

katta mutaxassis O’zbekiston Respublikasi Toshkent shahri

e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

### Annotation

Bugungi globallashgan, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari shiddat bilan yuksalayotgan bir davrda bir qancha yangi iqtisodiy faoliyatlar paydo bo`lib, an'anaviy tarmoqlarni ortda qoldirmoqda. Shunday tarmoqlardan biri online shoppingdir.

“Online shopping” bugungi kunda tez rivojlanib, ommalashib borayotgan tarmoqlardan biridir. Biroq, uning qonunchiligi, huquqiy tartibi, ayniqsa, soliq masalalariga jiddiy e’tibor qaratilishi bugungi kunning zaruriyatlaridan biri bo`lib qolmoqda. Online shoppingda soliq qonunchiligini yanada rivojlantirish nafaqat huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki davlat budgetining qiymatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ham aynan online shoppingni soliqqa tortish masalalari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** online shopping (elektron tijorat), soliq, soliq ma’muriytachiligi, huquqiy tartibga solish, Rossiya, Qozog‘iston, AQSH.

## TAX ON THE SYSTEM” ONLINE SHOPPING (E-COMMERCE)”

N. B. Karimova,

Senior Specialist Public Services Center

Chilanzar district, Tashkent, Republic of Uzbekistan

e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

### Annotation

В то время, когда сегодняшние глобализированные информационно-коммуникационные сети находятся на подъеме, появляется ряд новых видов экономической деятельности, которые опережают традиционные сети. Одной из таких сетей является интернет-шоппинг.

“Интернет-шоппинг” - одна из самых быстрорастущих и популярных сетей сегодня. Однако его законодательство, правовой порядок и, в частности, серьезное внимание к налоговым вопросам остаются одними из потребностей сегодняшнего дня. Дальнейшее развитие налогового законодательства в сфере



Website:

<https://wos.academiascience.org>



онлайн-шоппинга будет иметь важное значение не только для эффективного решения правовых, социально-экономических вопросов, но и для повышения стоимости государственного бюджета. В этой статье также рассматриваются именно вопросы налогообложения онлайн-покупок.

**Keywords:** online shopping (e-commerce), tax, Tax Administration, Legal Regulation, Russia, Kazakhstan, USA.

## НАЛОГ В СИСТЕМЕ" ИНТЕРНЕТ-ШОППИНГ (ЭЛЕКТРОННАЯ КОММЕРЦИЯ)"

Н.Б.Каримова,

Старший специалист Центра государственных услуг  
Чиланзарского района Ташкент, Республика Узбекистан  
e-mail: zokirovanilufar710@gmail.com

### Аннотация

In a time when today's globalized, information and communication networks are rapidly rising, several new economic activities are emerging, leaving traditional sectors behind. One such network is online shopping.

"Online shopping" is one of the networks that is rapidly developing and gaining popularity today. However, one of the necessities of today is that its legislation, legal procedure, especially with a serious focus on tax matters. The further development of tax legislation in Online shopping plays an important role not only in the effective solution of legal, socio-economic issues, but also in increasing the value of the state budget. This article also provides an idea of exactly online shopping taxation issues.

**Ключевые слова:** интернет-шоппинг (электронная коммерция), налогообложение, налоговое администрирование, правовое регулирование, Россия, Казахстан, США.

Bugungi globallashgan, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari shiddat bilan yuksalayotgan bir davrda bir qancha yangi iqtisodiy faoliyatlar paydo bo`lib, an'anaviy tarmoqlarni ortda qoldirmoqda. Shunday tarmoqlardan biri online shoppingdir.

“Online shopping” bugungi kunda tez rivojlanib, ommalashib borayotgan tarmoqlardan biridir. Biroq, uning qonunchiligi, huquqiy tartibi, ayniqsa, soliq masalalariga jiddiy e'tibor qaratilishi bugungi kunning zaruriyatlaridan biri bo`lib qolmoqda. Mazkur sohada qonunchilikni takomillashtirishning naqadar muhim





ekanligini **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga 2020-yil uchun mo`ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Murojaatnomasida** ham raqamli texnologiyalar va ularning afzalliklariga alohida to`xtalib o`tganligida ko`rishimiz mumkin. Rahbarimizning so`zlariga ko`ra, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi bilan bir qancha afzalliklarga egadir.

Bu davrga kelib online shopping butun dunyoda eng yosh va serdaromad sohalardan biriga aylandi. Bu esa uning huquqiy bazasini yanada mustahkamlashni va qonunchiligini takomillashtirishni talab etmoqda.

Online shoppingda soliq qonunchiligini yanada rivojlantirish nafaqat huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki davlat budgetining qiymatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Online bozorning keng yoyilishida Yevropa va Amerika qit’asidagi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Hattoki, MDH davlatlaridan biri bo`lgan qo`shni Qozog`istonda bu ijtimoiy munosabat tartibga solingan. Demak, bu mamlakatlarning –Online shoppingda soliqqa oid qonunchilik bazalaridan unumli fodolansak o`rinli bo`ladi. Eng qiziqarli va ahamiyatli jihat shuki, bu mavzu bir vaqtning o`zida ham raqamli tijoratni, ham soliq masalalarini qamrab oladi. Shu boisdan ham online shopping sohasidagi hamda soliq sohasidagi huquqiy normalar maydonga chiqadi. Fikrimizning dalili o`laroq, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O`zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to`g`risida”gi PF-5468-son Farmoni e’lon qilindi.

Unga ko`ra, mahalliy soliq va yig`imlarning ma’muriyatichiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig`iluvchanlik darajasi yetarli emasligiga alohida urg`u berildi. Yangi tahrirda Soliq kodeksining qabul qilinishi va unda maqsad qilib soliq yuklarining yengillashishi, soliq turlarining kamayishi, tadbirkorlarga qulaylik va afzalliklar yaratilganligi bilan ahamiyatlidir, biroq bu yuqorida ko`rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham online shoppingdan ham soliq undirilishi kerakligi bugungi kunning muhim tendensiylaridan biri ekanligiga ahamiyat berilmaganligini ko`rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda savdo, ayniqsa, kichik biznes uchun eng jozibali faoliyat turlaridan biri online shopping hisoblanadi. Birinchidan, bu nisbatan tez pul oqimlari va mo`may daromad topishning yaxshi usuli bo`lib, ko`p odamlar o`z biznesini boshlash va boshlang`ich kapitalni shakllantirish yo`llaridan biri sifatida online shoppingdan foydalanishadi. Albatta, o`z-o`zini moliyalashtirish bilan bog`liq boshqa tadbirlar singari savdo ham tavakkalga tayanadi, ammo shunga qaramay, mamlakatimizda



savdoning rivojlanishi, bir tomondan, xususiy tadbirkorlik, ikkinchi tomondan, jamiyatning barcha sohalarida axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tufayli bu faoliyat juda jadal rivojlanmoqda. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tadqiqotlariga ko`ra, bu faoliyat iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir. Ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda AKT dan foydalanish iqtisodiyotning barcha sohalarida keng tarqalishi va tezkorligi bilan ajralib turadi. So`nggi 20 yil ichida elektron iqtisodiy faoliyat bozori Internetdan foydalanuvchilar sonining ko`payishi, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa interfaol onlayn platformalar ta'sirining kuchayishi, shuningdek elektron to`lov tizimlarining jadal rivojlanishi tufayli butun dunyo bo`ylab online shoppingning keng tarqalishiga olib keldi.

Online shopping ko`plab davlatlarda yetarlicha shakllangan bo`lib, undan olinadigan daromad va soliqlar yig`ish mexanizmi ham sayqallanib ulgurgan.

Masalan, bu borada Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Amerika davlatlari yetakchilik qilsa, MDH davlatlari rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirmoqda. Agar bir necha yil oldin, odamlar Internet orqali tovarlarni sotib olishdan ehtiyoj bo`lishgan bo`lsa, endi Internet-do`kondan hech bo`lmaganda bir marta foydalanmagan yoxud unga qiziqib ko`rmagan odamning o`zi bo`lmasa kerak. Albatta, yurtimizda ham bu sohaga qiziqish keng avj olmoqda. Buni O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi Qarorida ham ko`rib o`tishimiz mumkin. Unga ko`ra, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo`yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini berdi. Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to`laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga to`siq bo`layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, unda elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat budgetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda, shuningdek amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni to`laqonli rag`batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog`i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalg qilishni cheklanmoqda. Demak, yuqoridagi fikrdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, online shoppingning oqilona va to`g`ri huquqiy tartibga solinishi va zamon talablariga mos ravishda soliq undirish mexanizmining yaratilishi, avvalo,



tadbirkorlarga qulaylik yaratib, mamlakatimiz g`aznasining ortishiga olib keladi, shuningdek iqtisodiyotimizdagi xufyona harakatlar kamayib, –iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishonchli infratuzilmani shakllantirish || ga yordam beradi. O`zbekistonda ham axborot-texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari yuqori bosqichga ko`tarilib borayotgan bir paytda online shoppingni rivojlantirish, uni huquqiy tartibga solish, shuningdek iste'molchi va tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuning bilan bir qatorda jahon miqyosida keng tendensiyalarda rivojlanib kelayotgan soliq mexanizmini yaratish yuzasidan ko`plab milliy dastur va loyihibar hayotga tatbiq etilmoqda.

O`zbekiston hozirda bu kabi imkoniyatlarni, albatta, qo`ldan bermasligi lozim, avvalo, online shopping sohasida huquqiy bazani bir sidra ko`zdan kechirishi va to`sqliarni olib tashlashi, shu bilan birgalikda kamchiliklarni to`ldirishi lozim. Bunda birinchi navbatda, online-shopping rivojlangan mamalakatlarning normativ-huquqiy hujjatlar bazasini va qonunchilikdagi imkoniyatlarini ko`rib chiqish o`rinli bo`ladi. Online shoppingo`ziga katta sarmoya va resurslarni mujassamlashtirish bilan bir qatorda mustaqil davlat va jamiyatda axborot-kommunikatsiya xizmatining yanada jadal rivojlanishini taqazo etuvchi soha hisoblanadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan davrda axborot-texnologiyalarining o`sib borishi natijasida online-shopping ham o`z yuksalish bosqichiga ko`tariladi. Shunday paytda mamlakatimiz va fuqarolarimiz ham ushbu rivojlanish tendensiyalaridan ortda qolmasdan, zamon bilan hamnafas bo`lgan holda faoliyat olib borishi kerak. Buning uchun esa shu sohadagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishimiz va faqat bir tomonlama siyosat yuritmasdan, ham tadbirkorlarning, ham iste'molchilarining qonuniy huquq va manfaatlarini barobar, adolat tamoyiliga asoslanib himoya qila oladigan yangi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini yaratishimiz bugungi globallashgan zamonning talabi desak, adashmagan bo`lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlisning qo'shma majlisidagi nutqi.-T.: –O`zbekiston||, 2016. 59 bet.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Xalq so`zi. 2020-yil 25-yanvar, № 19 (7490).
3. 2018-yil 21-noyabrdagi –Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to`g`risidal gi PQ-



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

4022-sonli qarori// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2018-y., 07/18/4022/2199-son.

4. 2019-yil 17-yanvardagi 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini —Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yiliда amalga oshirishga oid davlat dasturi to`g`risida gi PF-5635-sonli farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 06/19/5635/2502-son, 08.03.2019y., 06/19/5687/2723-son, 21.05.2019-y., 06/19/5722/3154-son, 11.12.2019-yil.
5. Александров В.А. Налогообложение доходов иностранных участников электронной коммерции в России Электронный ресурс. Дис. канд. экон. наук: 08.00.10. М.: РГБ, 2006.
6. Артемов Н.М. Финансово-правовое регулирование внешнеторговой деятельности. М., 2004.



Website:

<https://wos.academiascience.org>